



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta’siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta’siri.....	153
Mirzayeva L.S. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo‘llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo’stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo’stonova N.A., Nematjonova R.D. O‘zbekistonda aholining daromadlari va iste’mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta’siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo‘yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro‘li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni.....	221
Mamatov B.S. O‘zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta’minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar..	272

**SANOAT KORXONALARIDA MEHNATNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH
SAMARADORLIGI TAHLILI**

**АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ ТРУДОМ
ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF LABOR ORGANIZATION AND
MANAGEMENT AT INDUSTRIAL ENTERPRISES**

Hamidova Shahzoda Odiljanovna
Andijon davlat texnika instituti, assistent.

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlari baholanib, rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish hamda tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish orqali korxonada faoliyati natijadorligini oshirish yo‘llari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnatni tashkil etish, boshqaruv samaradorligi, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, mehnat unumdorligi, rag‘batlantirish tizimi, tashkiliy innovatsiyalar, sanoat korxonasi.

В данной статье проанализированы вопросы повышения эффективности организации труда и управления на промышленных предприятиях. Оценены показатели экономической и социальной эффективности, обоснованы направления совершенствования системы стимулирования и внедрения организационных инноваций с целью повышения результативности деятельности предприятия.

Ключевые слова: организация труда, эффективность управления, экономическая эффективность, социальная эффективность, производительность труда, система стимулирования, организационные инновации, промышленное предприятие.

This article analyzes issues of improving labor organization and management efficiency at industrial enterprises. Indicators of economic and social efficiency are evaluated, and ways to enhance performance through improving incentive systems and implementing organizational innovations are substantiated.

Keywords: labor organization, management efficiency, economic efficiency, social efficiency, labor productivity, incentive system, organizational innovations, industrial enterprise.

Mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar jadal sur‘atlarda amalga oshirilayotgan buguni kunda mehnatni ilmiy – innovatsion tashkil etish va samarali boshqarish barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Korxonaning (tashkilotning, firmaning) muvaffaqiyatli tashkiliy rivojlanishi, shu jumladan tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish faqat mavjud mehnatni tashkil etish tizimini eng to‘liq, har tomonlama va obyektiv baholash bilan mumkin. Mehnatni tashkil etish darajasi va samaradorligini tahlil qilish mehnatni tashkil etish va umuman korxonani samarali boshqarish uchun asosdir.

Mehnatni tashkil etishni tahlil qilishning mohiyati butun mehnatni tashkil etishning joriy tizimini va uning alohida elementlarini har tomonlama o‘rganish, mehnatni tashkil etish holatining iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar va korxonaning quyi tizimlariga ta‘sirini aniqlashdan iborat. Mehnatni tashkil etishni tahlil qilish mehnatni tashkil etishning mavjud darajasini belgilovchi barcha omillarni (ish vaqti va asosiy vositalardan foydalanish, mehnat va ishlab chiqarishning unumdorligi va samaradorligi, ish sifati, xodimlarning samaradorligi va sog‘ligi, mehnat salohiyatini rivojlantirish

va ulardan foydalanish, xodimlarni rag‘batlantirish va boshqalar.) chuqur va har tomonlama o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi.

Mehnatni tashkil etishni tahlil qilishning asosiy maqsadi eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun mehnatni tashkil etish tizimining holati to‘g‘risida obyektiv, dalillarga asoslangan va har tomonlama ma‘lumot olish va tashkillashtirish yoki tashkiliy innovatsiyalar asosida korxonaning tashkiliy darajasini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni aniqlashdir.

Mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi — bu umumiy boshqaruv faoliyatining tashkilot ishining yakuniy natijasiga qo‘shgan hissasini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyadir. Mehnatni tashkil etish va boshqarish jarayonining funksional maqsadi asosiy faoliyat samaradorligini ta‘minlashdir, shuning uchun uning samaradorligi tashkiliy tizimning samaradorligi darajasi bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, boshqaruv samaradorligi tashkilot maqsadlarini amalga oshirish darajasi va uning ajralmas ko‘rsatkichi – foyda va mehnat unumdorligi bilan belgilanadi [1].

Mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi muayyan boshqaruv tizimi samaradorligining nisbiy xarakteristikasi bo‘lib, u ham boshqaruv obyektining, ham boshqaruv faoliyatini o‘zining (boshqaruv subyektining) turli ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi va bu ko‘rsatkichlar ham miqdoriy, ham sifat ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Korxonada mehnatni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish natijasida iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishiladi: ishlab chiqarish hajmi va samaradorligi oshadi, korxonalarining barqaror ishlashi ta‘minlanadi, mehnatni tejashga erishiladi, mahsulot sifati oshadi, mehnatdan qoniqish hosil qilinadi, xodimlar qo‘nimsizlik darajasi kamayadi [2].

Biroq, iqtisodiy va ijtimoiy ta‘sirning barcha elementlari miqdoriy ko‘rsatilmagan. Bu mehnatni boshqarish samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, nafaqat miqdoriy, balki sifat ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish kerak.

Samaradorlik — bu har qanday sohada xodimlar jamoasining mehnat faoliyatini baholash mezonidir. Shuning uchun boshqaruvning yuqori samaradorligini ta‘minlash ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish umumiy muammosining bir qismidir.

Samaradorlikni aniqlashning turli usullari mavjud:

- boshqaruv samaradorligining sintetik ko‘rsatkichlarini hisoblash (samaradorlik koeffitsiyenti, ishonchlilik);

- haqiqiy ma‘lumotlar o‘tgan yillardagi me‘yoriy, rejali yoki ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi (ma‘muriy xodimlar sonining me‘yorlari, iqtisodiyotni boshqarish samaradorligi);

- mutaxassislar yordamida samaradorlikni sifatli baholashni qo‘llash;

- boshqaruv samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun empirik formulalarni qo‘llash va boshqalar.

Mutlaq samaradorlik ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari natijasida olingan samaraning umumiy qiymati bilan ifodalanadi [3].

Qiyosiy samaradorlik bir variant boshqasidan, ishlab chiqilganidan yoki ishlayotganidan qanchalik samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

har bir ishchi, xodim, mutaxassislar uchun lavozim yo‘riqnomasi, bajariladigan ishlarning nomi, bajarish tartibi, muddati, sifati, normasi, ularning haqiqatda bajarilishi va ularga mos keluvchi haq to‘lash va rag‘batlantirish(jazolash) miqdorlarini aniq ishlab chiqib ularning har biriga yetkazilishini ta‘minlash zarur(N₁);

har bir ishchi, xodim, mutaxassislar o‘z ish o‘rinlariga, ishlab chiqargan mahsulotiga yangilik elementlarini kiritilishini e‘tiborga oluvchi rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish zarur(N₂);

“Eng yaxshi ishchi”, “eng yaxshi mutaxassis” kabi doskalarni tashkil etib, ularni rag‘batlantirishini ta‘minlash zarur(N₃);

ishga qabul qilish mexanizmini zamon talablari darajasida takomillashtirilib borishiga erishish zarur(N₄);

inson hayotida unutilmas kunlar(tug‘ilgan kun, to‘y “yaqin” kishisini yo‘qotgan kun va boshqalar)da rahbar(korxonaga) o‘z imkoniyatidan kelib chiqib individual rag‘batlantirish tizimini joriy qilish zarur(N₅).

Buning natijasida rahbarga(korxonaga) bo‘lgan sadoqat hissi, sog‘lom psixologik muhit shakllanadi, jamoa mehr-oqibat asosida jipslashadi;

rag‘batlantirish va jazolash tizimi ijtimoiy tenglik ta‘minlangan holda odilona prinsiplar asosida shakllantirilishi zarur(N₆).

Yuqoridagi biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida me‘natni tashkil etish va boshqarish samaradorligini aniqlash formulasini topishimiz mumkin:

$$S = \frac{[N_1 + N_2 + N_3 + N_4 + N_5 + N_6 + \dots + N_n]}{T_n}$$

Bu yerda: N – tavsiyalarni joriy etilishidan olingan natija;

T_n – ajratib olingan vaqt.

Samaradorlikni topish uchun berilgan tavsiyalar joriy etilgan ma‘lum bir ajratib olingan muddatdagi foydani avvalgi teng muddatdagi foydani bir biriga taqqoslash yo‘li bilan topiladi. Samaradorlik tushunchasi nisbiy tushuncha bo‘lib, u ikki ko‘rinishda bo‘ladi: iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy samaradorlik. Iqtisodiy samaradorlik pul yoki moddiylik shaklida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy samaradorlik – jamiyatga, davlatga, insonlarga qaysidir darajada naf(yaxshilik) keltirishi bilan pulda yoki moddiylikda ko‘rinmaydigan shaklda namoyon bo‘ladi(masalan, uchastka profilaktika inspektorining, o‘qituvchining yoki kutubxonachining mehnati va boshqalar).

Biz tadqiqot obyektlarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligini aniqlash maqsadida taqqoslash muddatlarini 2023 va 2024 yillarni belgilab oldik.(1-jadval).

Quyidagi jadvalda biz “Saxovat tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatda mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligini aniqlaymiz.

1-jadval

“Sarvinoz tekstil” xususiy korxonasida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligini aniqlash jadvali [4] (mln.so‘m)

№	Samaradorlikni ta‘minlovchi joriy qilinayotgan tadbirlar(tavsiyalar)	“Sarvinoz tekstil” MCHJ		
		Joriy qilingunga qadar foyda	Joriy qilingunga keyingi foyda	Samaradorlik
1	2	3	4	5
1	N ₁	430,8	534,6	103,8
2	N ₂	431,2	535,4	104,2
3	N ₃	433,3	529,3	96,0
4	N ₄	428,0	539,7	111,7
5	N ₅	441,7	530,0	88,3
6	N ₆	419,7	538,7	119,0
Jami:		2 584,7	3 207,7	623,0

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Sarvinoz tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyat 2023 yilga nisbatan 2024 yili yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan samaradorlikni ta‘minlovchi tadbir va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish natijasida 623 million so‘m ziyod sof foyda olishga erishgan.

Bizga ma‘lumki, samaradorlik tushunchasi keng qamrovli nisbiy tushuncha bo‘lib, ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar juda ko‘p. Biz tadqiqotimiz obyektlari hisoblangan to‘qimachilik korxonalari faoliyati samaradorligini oshib borishiga ta‘sir qiluvchi oltita tadbirlarni oldik, xolos.

Bundan tashqari mehnatni tashkil etish va boshqarish funksiyasini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini baholashda shuni alohida yodda tutish kerakki, bunday takomillashtirishning haqiqiy samarasi tashkil etish va boshqaruv xarajatlarini tejash miqdoridan ancha yuqori bo‘ladi. Bunda boshqaruv tizimini takomillashtirish nafaqat boshqaruv xodimlarining mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi, balki korxonaning barcha xodimlarining mehnat

unumdorligini ortishiga, ishlab chiqarish hajmini oshirishga, odamlar va asbob-uskunalarining ishlamay qolish vaqtini qisqartirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mehnat intizomini yaxshilanishiga, inson o‘z qobiliyatlarini to‘liq darajada namoyon qilishi, rivojlantirishi mumkin bo‘lgan sharoitlarni yaratishga zaruriyat tug‘iladi va bunga erishiladi [5].

Mehnatni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq individual chora-tadbirlar samaradorligini (boshqaruv tuzilmasi, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish standartlaridagi o‘zgarishlar, malakali kadrlar mavjudligi) omili tahlil yordamida baholash mumkin. Shu bilan birga, korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijalarini shakllantirishga boshqa omillarning ta‘sirini bartaraf etishni ta‘minlash kerak.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ishlab chiqilgan tavsiyalarni mulk shaklidan qat‘iy nazar barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga muntazam sistemali tatbiq etilishi barqaror rivojlanuvchi faoliyatni ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdukarimov B.A. Korxonalar iqtisodiyoti. -T.: «Fan» 2015 yil.
2. Abdukarimov T., Isroilov V., Pardiev M. Iqtisodiy tahlil (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Mehnat», 2017 yil.
3. Yo‘ldoshev N.Q, Mirsaidova Sh. A, Goldman Ye.D. “Innovatsion menejment” T-2011, Darslik.
4. R. I. Gimush, F. M. Matmurodov., “Innovatsion menejment” T-2008, O‘quv qo‘llanma.
5. B. Mardonov, E. Shavqiev, Sh. Quvondiqov, “Mehnatni tashkil etish va boshqarish” O‘quv qo‘llanma, 2022.

UDK:330

MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINING IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL SAMARADORLIGI

СОЦИАЛЬНАЯ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН

SOCIAL AND INSTITUTIONAL EFFICIENCY OF SPECIAL ECONOMIC ZONES ACTIVITIES

Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Biznes va boshqaruv” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy rivojlanish, bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga ko‘rsatadigan ta‘sirini baholashdan iborat. Shuningdek, institutsional omillar - boshqaruv tizimi, normativ-huquqiy baza, investitsion muhit va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorlikka ta‘siri o‘rganiladi. Tadqiqotda statistik, taqqoslama va tizimli tahlil usullaridan foydalaniladi. Natijada ijtimoiy va institutsional samaradorlikni baholash mezonlari taklif etilib, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni samarali shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: maxsus iqtisodiy zonalar, ijtimoiy samaradorlik, institutsional samaradorlik, hududiy rivojlanish, investitsion muhit, bandlik darajasi, tadbirkorlik muhiti, davlat qo‘llab-quvvatlashi, boshqaruv tizimi, iqtisodiy siyosat.